SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 6/S
2023

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SP1342V3I6/SY2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/6 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**


*Мамаражабов Бобир Нормўмин ўғли*
САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК ........ 8-17

*Хайдаров Абдулходи Ахмадали ўғли*
XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА ТОМОРҚАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ........ 18-22

*Назаров Азизбек Ёқубжонович*
ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИ ........ 23-31

*Abdulloyev Jamshed Izzatulloyevich*
MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI ........ 32-36

*Пасилов Баҳодир Абдуллаевич*
ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 ЙЙ.) ........ 37-41

*Ismailov G‘afurjon Xasanovich*
TURKIYADAGI O‘ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI “SULTONTEPA TEKKESI” MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O‘RNI ........ 42-46

*Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich*
BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ISLOHOTLAR ........ 47-50

*Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna*
SHARQ VA G’ARB UYG’ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL ........ 51-55

*Нафиддинова Хосият Равшановна*
БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР ........ 56-60


**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**


*Zhang Hongzhi, Wu Bo*
RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR SPREAD ........ 61-66

*Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna*
MINTAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 67-72

*Nayimov Shoxruh*
PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A COMMERCIAL BANK ........ 73-79

*Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich*
ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ........ 80-88

*Рахматуллаев Беҳзод Рахматуллаевич*
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР МАСАЛАЛАРИ ........ 89-95

*Abdullayeva Zamira Muxtarovna*
MEHNAT BOZORI TALABLARIGA OLIY TA'LIM XIZMATLARI MODELLARINI MOSLASHTIRISH ........ 96-102

*Имомов Холмурод Норқулович, Шарипов Тўлқин Саидахмедович*
ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ ........ 103-114

*Эргашев Ахмаджон Махмуджон ўғли*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 115-122

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Imomova Nozimaxon Avazxonovna*
JAMIYAT FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI ........ 123-129

*Qodirov Davronbek Hoshimovich*
ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI ........ 130-133

*Jabborova Saodat Sattorovna*
SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY SALOHIYATNI YUKSALTIRISHDA QO'SHGAN HISSASI ........ 134-142

## *10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*

*Tuxtasinova Mahliyoxon Shavkatjon qizi*
L.Z.BUDAGOV LUG'ATIDA ESKI O'ZBEKCHA SO'ZLARNING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA IZOHLANISHI ........ 143-149

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDA EKVIVALENTLIK MASALASI ........ 150-154

*Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna*
UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY TA'MINOTI ........ 155-160

*Mirzayeva Yelena Sa'dullaevna*
O'ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH ........ 161-166

*Alimjanova Shohsanam Azamat qizi*
INGLIZ TILIDAGI KO'P MA'NOLI IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

USULLARI ........................................ 167-171

*Iskandarova Shamsiyabonu Ulugʻjonovna*
BADIIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalamining "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida) ........................................ 172-176

*Hamroqulova Marjona Nabijon qizi*
"MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI FRAZEMALARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI ........................................ 177-181

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Зулфикоров Шерзод Хуррамович*
ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ........................................ 182-191

*Таллибаев Умиджон Шергазиевич*
ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ. ........................................ 192-199

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Iminakhunova Iroda Huseynovna*
THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES ........................................ 200-206

*Usmanaliev Khusniddin*
INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESSOF A FOREIGN LANGUAGE ........................................ 207-219

*Madaminov Uktam Ataxanovich*
ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OʻQITISH METODIKASI ........................................ 220-224

*Yuldasheva Dilfuza Qodirovna*
TURIZM YOʻNALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI OʻRGATISH USULLARI ........................................ 225-229

*Tohirova Shohsanam Yunusovna*
THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS ........................................ 230-236

*Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna*
ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN ........................................ 237-242

*Raxmatova Mexrinoz Majitovna*
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVASION TARGʻIBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI ........................................ 243-247

*Sheraliyev Odiljon*
TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI ........................................ 248-254

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/6(3)-2023.**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*13.00.00- Педагогика фанлари*

**Raxmatova Mexrinoz Majitovna**
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti oʻqituvchisi, PhD.

## YOSHLAR MA’NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVASION TARGʻIBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda innovasion targʻibot texnologiyalarining samaradorligi ochib berilgan. Samaradorlikka erishishda amal qilinishi lozim boʻlgan texnologiya, qonun-qoidalar yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** ma’naviy jarayonlar dinamikasi, gʻoya, targʻibot, texnologiya, sub’yekt, tamoyil, ma’naviy qiyofa, milliy oʻzlik, samaradorlik.

**Raxmatova Mexrinoz Majitovna**
Teacher of Denov Institute of
Entrepreneurship and Pedagogy, PhD.

## EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE PROPAGANDA TECHNOLOGIES IN RAISING THE SPIRITUAL POTENTIAL OF YOUNG PEOPLE

**Abstract.** This article reveals the effectiveness of innovative propaganda technologies in increasing the spiritual potential of young people. The technology, laws and regulations that must be implemented in order to achieve efficiency are highlighted.

**Key words:** dynamics of spiritual processes, idea, propaganda, technology, subject, tendency, spiritual image, national identity, effectiveness.

**Рахматова Мехриноз Мажитовна**
Преподаватель Денауского института
предпринимательства и педагогики, PhD

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОПАГАНДИСТСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОГО ПОТЕНЦИАЛА МОЛОДЕЖИ

**Аннотация.** В данной статье раскрывается эффективность инновационных пропагандистских технологий в повышении духовного потенциала молодежи. Выделены технологии, законы и правила, которые необходимо внедрить для достижения эффективности.

**Ключевые слова:** динамика духовных процессов, идея, пропаганда, технология, тематика, тенденция, духовный образ, национальная идентичность, эффективность.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N36

**Kirish**. Ma’naviy salohiyatni yuksaltirish koʻp qirrali jarayon boʻlgani uchun yoshlar ma’naviyati voqeligini tashuvchi subyektlarning oʻzida madaniyat va milliy oʻzlik

hodisalarining rivojlanishi bilan birga kechadi. Jamiyat barqarorligini saqlab qolishda yosh avlod vakillarining ma’naviy qiyofasi muhim rol o‘ynaydi. “Yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirish avvalo, qisqa va uzoq muddatli taktika va strategik dasturlarning belgilab olinishi bilan boshlanadi”[1.441]. Yoshlar ma’naviyatini tushunishda umuman madaniyat tushunchasini chetlab bo‘lmaydi. Ma’naviy salohiyat tushunchasi o‘zida falsafiy, tarixiy, etnografik, psixologik, sotsiologik va boshqa yo‘nalishlarni mujassam etgan va mazkur soha vakillarining e’tiborini o‘ziga tortib kelgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda innovatsion targ‘ibot texnologiyalarining samaradorligiga oid manbalar T.Alimardonovning “Jamiyatda siyosat va axloq muvozanati muammolari”, I.Ergashev va bosh. “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari”, R.Galeyevning “Duxovnыy potensial kak ob’yekt issledovaniya i upravleniya”, O.Muxammadjanov, F Muxiddinovaning “O‘zbekistonda Yoshlar huquqi: Qonun va imtiyozlar”, I.Saifnazarovning “Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat” asarlarida o‘z ifodasini topgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Mazkur maqolani tayyorlashda kompleks yondashuv, tizimlilik, umumlashtirish, analogiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ma’naviy salohiyat uzoq yillar va avlodlar almashinuvi natijasida tarkib topgan, madaniy an’analar siyosiy amaliyot me’yorlari, g‘oyalar, turli siyosiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga doir konsepsiya va e’tiqodlarni o‘z ichiga oladi. U insonlarning o‘zlari yashayotgan mavjud tizimga, undagi institutlarga va xatti-harakat qoidalariga, alohida shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tamoyillariga nisbatan shakllangan intilishi va ko‘rsatmalarini ham o‘z ichiga oladi. Ma’naviy salohiyat ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lib, u nisbiy barqarorlik, hayotiylik va doimiylikka egadir. U ijtimoiy borliqda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar jarayonida ham sekinlik bilan rivojlanib boradi[2.53-55].

Ma’naviy salohiyat darajasi yosh xususiyatlariga ko‘ra, ijtimoiy qatlamga mos fiziologik, biologik, jismoniy tomondan farqlanishi mumkin.

**Mazmuni.** Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ilm-ma’rifat va kasb hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, ezgu qadriyatlarga sadoqat kabi fazilatlar azaldan xalqimiz va millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday ma’naviy merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodga bezavol yetkazishimiz kerak”[3].

Muzeylar, teatrlar, istirohat bog‘lari, madaniyat va aholi dam olish markazlari, badiiy jamoalar, orkestrlar, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, musiqa va san’at maktablari yoshlarning madaniy va san’at salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Madaniyat vazirligi huzuridagi Yoshlar ijodkorligini faollashtirish va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish departamentiga bir qator muhim vazifalar yuklangan:

- yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, milliy san’atimizning rivojlanishida ular uchun ijodiy jarayonlarni tashkil etish, faoliyat ko‘rsatishlari hamda iste’dodlarini namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratmoqda;

- O‘zbekiston vakillarining madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha xorij mamlakatlarida ta’lim olayotgan, Respublikada samarali ijodiy faoliyat ko‘rsatayotgan ijodkor yoshlarning bazasini yaratadi va yangilab boradi;

- madaniyat va san’at sohasidagi iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlarda ta’lim olishlari yoki malaka oshirishlari, tanlov, festival, anjuman va boshqa madaniy tadbirlarda ishtirok etishi uchun tavsiya beradi hamda amaliy yordam koʻrsatadi;

- ijodkor yoshlarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻyadi;

- madaniyat va san’at sohasidagi ta’lim muassasalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlardan ijodkor yoshlar bilan amalga oshirilgan ishlar toʻgʻrisida hisobotlarni oladi va umumlashtirish bilan shugʻullanadi.

Shuningdek, yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda innovatsion targʻibot texnologiyalarini qoʻllashning asosiy maqsad va vazifalari:

- targʻibot subyektini ezgu gʻoya bilan bogʻliq mushtarak maqsadlar bilan birlashtirish va uyushtirish;

- muayyan ezgu gʻoyaga ishontirish;

- demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishga safarbar etish;

- ma’naviy-ruhiy ragʻbatlantirish hamda milliy gʻoya negizlariga boʻlgan ishonch va e’tiqodini mustahkamlash;

- milliy gʻoya maqsad va tamoyillariga sodiq holda tarbiyalash;

- yot va zararli gʻoyalar, turli-xil mafkuraviy xurujlar, “ommaviy madaniyat” va “ma’naviy tahdid”larga qarshi gʻoyaviy immunitetini shakllantirish va jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda harakat dasturi boʻlishga yoʻnaltirilgan.

Oʻz oldimizga qoʻygan maqsadga erishishda innovatsion targʻibot texnologiyalaridan oqilona foydalanish va tashkil etish kutilgan amaliy samarani berishi mumkin.

Yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda targʻibotni tashkil etishda quyidagi texnologiyalar va tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- keng qamrovlilik, bunda jamiyatning barcha a’zolariga gʻoyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi. Natijada, jamiyatning barcha boʻgʻinlari mafkuraviy ta’sir doirasida qamrab olinadi; — umumiy maqsadga yoʻnaltirilganlik; — faol insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish mafkuraning bosh maqsadi qilib olinadi;

- uzluksizlik — targʻibotning makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili gʻoyani xalq ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan mafkuraviy maydon yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta’lim tizimidagi oʻquv rejalari, dasturlar, darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari, sinf va auditoriyalar, koʻrgazmali qurollar milliy gʻoyaga uygʻun boʻlishini taqozo etadi.

- ketma-ketlik — har bir bosqich uchun istalgan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;

- bosqichma-bosqichlilik — milliy mafkurani targʻib qilishning ruhiy jihatlari bilan bogʻliq boʻlib, ham targʻib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan oʻtishini taqozo qiladi. Aytaylik, boshlangʻich sinf oʻquvchisiga milliy mafkuraning falsafiy va etnik ildizlari toʻgʻrisida gapirish nooʻrin boʻlishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun bogʻchada, boshlangʻich ta’lim, umumiy oʻrta ta’lim, litsey va kollejlar, oliy oʻquv yurtlari va mehnat jamoalarida mafkuraviy ish, ma’naviy tarbiya oʻquvchilarning yoshi, bilimi, ma’lumoti kabi jihatlarini hisobga olib borilishi kerak;

- me'yoriylik — aksiltarg'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qo'ymaydi;

- shaxsiy ibrat — mafkuramizni targ'ib qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o'quvchilarga millat manfaatlari, orzu-umidlari, intilishlari to'g'risida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o'zi hayotda shu manfaatlarga zid ishlarni qilsa, bu targ'ibotning samarasi nolga teng bo'ladi.

- ilg'or targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish — bunda mafkuraviy targ'ibotga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Milliy g'oyaning targ'iboti qotib qolgan narsa emas, faol jarayondir. Shuning uchun uni qadimdan qolgan va'z aytish va ma'ruza o'qish kabi targ'ibot shakllari yordami bilangina keng xalq ommasi ongiga singdirib bo'lmaydi. Maqsadga erishish uchun targ'ibotning faol shakllaridan, innovatsion texnologiyalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Yoshlar orasida targ'ibot olib borilganda munozara, bahs, davra suhbati kabi shakllardan oqilona foydalanilsa maqsadga tezroq va to'laroq erishish mumkin. Yoshlarning fiziologik va ruhiy xususiyatlari va'z va ma'ruzalarni emas, ko'proq interfaol usullar va sanab o'tilgan targ'ibot shakllaridan foydalanishni taqozo qiladi[4.41].

Mazkur targ'ibot tamoyillari milliy g'oyani inson ongi va qalbiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xildir. Turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi omillarni milliy g'oyani inson ongi va qalbiga singdirishda e'tiborga olish zarur va muhim.

G'oyaviy ta'sirlarga qarshi profilaktik ishlarning mazmunini, shakl va uslublarini, muhitning yoshlarga ta'sirini tadqiq qilish zaruriyati quyidagilarni taqozo qiladi:

- g'oyaviy ta'sirlarga qarshi dasturlarni yaratish va amalga oshirishda umumiy tamoyillarga e'tibor qaratish;
- g'oyaviy tarbiya jarayonida tizimli yondashuv;
- barcha jarayonlarni uzviy bog'lovchi monitoring tizimini yaratish;
- yangi texnologiyalarni jadal qo'llash va tezkorlikda aprobatsiyadan o'tkazishni talab qilmoqda.

Yoshlar ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda maxsus maktablar: Ibroyim Yusupov (Qoraqalpog'iston), Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim (Jizzax), Ishoqxon (Namangan), Muhammad Yusuf (Andijon), Erkin Vohidov (Marg'ilon), Abdulla Oripov (Qarshi), Abdulla Qodiriy (Toshkent), Muhammadrizo Ogahiy (Xorazm), Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ixtisoslashtirilgan (Guliston) maktab-internatlarining roli katta[5]. Bu maktablar joylarda yoshlar ma'naviy salohiyatini birlashtiruvchi kuch vazifasini o'taydi. Shuningdek, Muhammad al Xorazmiy (Toshkent), Mirzo Ulug'bek (Toshkent), Abu Ali ibn Sino (Toshkent) ixtisoslashtirilgan maktablarining faoliyati yoshlar ma'naviy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan[6].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 21 iyulda 768-son bilan davlat ro'yxatiga olingan Respublika Yoshlar markazi yoshlarning ilmiy, huquqiy, psixologik, pedagogik, iqtisodiy, tadbirkorlikka oid, ijtimoiy, ijodiy, intellektual, tibbiy, maishiy, fan-ta'lim, sport va san'at sohasidagi savodxonligini oshirish, kasb-hunarga o'rgatish maqsadida turli o'quv-amaliy va ijodiy to'garaklarni tashkil qilish maqsadida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotdir. Respublika Yoshlar markazining ta'sischisi O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi hisoblanadi. Muassasa o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston

Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari toʻgʻrisida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida"gi qonunlari va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda ustavga muvofiq yuritadi.

2019 yil 9-sentyabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish toʻgʻrisidagi Prezidentning PF-5815-sonli Farmoni hamda ushbu Agentlik faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida Prezidentning PQ-4444-sonli qarori ham yoshlar maʼnaviy salohiyatini yuksaltirishning konseptual asosini tashkil etadi.

**Xulosa va takliflar.** Yoshlarning yangicha fikr yuritishi, dunyoqarashining oʻzgarishi, siyosiy va ijtimoiy ongi oʻsishining oʻzi jamiyatdagi oʻzgarishlardan darak beradi. Biz oʻz oldimizga qoʻygan bunday ulkan maqsadlarga erishishda mazkur huquqiy asos va islohotlar, davlat dasturlari hamda ularning ijrosi, maʼnaviy jarayonlar dinamikasi maʼlum miqdorda xizmat qilmoqda. Chunki yoshlar aholining oʻziga xos va ulkan, millat va mamlakat kelajagini belgilab beradigan qatlamini tashkil etadi.

## Adabiyotlar/Literatura/References:


1. Steven Ellington. Developing your spiritual potential. – Middlesbrough: Liverpool University Press, 2018. –P. 441.
2. Qodirov E. Yoshlar siyosiy faolligini oshirish omillari // Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2009. – №4. –B.53-55.
3. Yoshlar – bebaho xazinamiz, kuch-qudratimiz va buyuk kelajagimiz timsoli. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oʻzbekiston Yoshlari Forumidagi nutqi // Yangi Oʻzbekiston. № 252, 2020 yil, 26 dekabr.
4. I.Ergashev va bosh. "Milliy gʻoya targʻiboti texnologiyalari" (oʻquv qoʻllanma). – Toshkent: Mashhur-Press, 2016. –B. 41.
5. Guliston shahrida ixtisoslashtirilgan maktab-internat binosi foydalanishga topshirildi // https://dadil.uz/2019/12/27/guliston-shahrida-ixtisoslashtirilgan-maktab-internat-binosi-foydalanishga-topshirildi.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi // https://piima.uz/specialized-schools.
7. Sobirovich T. B. Manifestations of Moral Threats in the Ideosphere of Uzbekistan and Their Prevention Strategy //Asian Journal of Basic Science & Research. – 2023. – Т. 5. – №. 1. – С. 103-108.
8. Turdiyev, B. S. (2021). Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers. *Academic research in educational sciences*, *2*(4), 443-451.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. *Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST)*, *7*(1), 149-157.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I6/SY2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/6 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).